Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 9-oktabr, № 210 (9381) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON: HAMKORLIKDAN MUSHTARAK TARAQQIYOT SARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-oktyabr kuni Turkmanistondagi “Avaza” milliy sayyohlik zonasida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi.





Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov raisligida o‘tgan sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, yetakchilar dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashib, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollarini ko‘rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda yuz bergan ijobiy o‘zgarishlarni qayd etdi. O‘zbekiston yetakchisi ta’kidlaganidek, bunda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muhim o‘rin tutdi.

Prezidentimiz Markaziy Osiyoni XXI asrda rivojlantirish maqsadida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomani tuzish jarayoni yakunlanganining tarixiy ahamiyatini alohida ta’kidladi.

Mintaqaviy jarayon doirasida katta va murakkab tuzilmalarni tashkil qilishga intilish yo‘qligi qayd etildi.

– Bizga kuchli, suveren va mustaqil davlatlar o‘zaro hurmat, ishonch va pragmatizm asosida hamkorlik qiladigan moslashuvchan va tushunarli format kerak, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Shundan so‘ng O‘zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyo mamlakatlari yaqinlashayotgan hozirgi murakkab xalqaro vaziyatga qisqacha baho berdi.

– Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, keskinlik kuchaymoqda, savdo va transport aloqalari qayta shakllanmoqda, yangi xatarlar paydo bo‘lmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha kelgusidagi qo‘shma faoliyatni yanada yaqinroq muvofiqlashtirish ahamiyati ko‘rsatib o‘tildi.

Avvalo, tarixiy, iqtisodiy va transport aloqalari mavjud mintaqalar bilan yagona hamkorlik makonini shakllantirish g‘oyasi ilgari surildi. Paydo bo‘layotgan imkoniyatlardan foydalanib, bu aloqalarni ancha mustahkamlash hamda savdo, transport, energetika, sanoat va yangi texnologiyalarni birgalikda rivojlantirish bo‘yicha aniq mazmun bilan boyitish zarurligi ta’kidlandi.

Ushbu masalalarni kelgusi yili Toshkentda o‘tkaziladigan “Tinchlik va barqaror o‘zaro bog‘liqlik yo‘lida mintaqalararo muloqot: Markaziy Osiyo yondashuvi” xalqaro konferensiyasida batafsil muhokama qilish taklif etildi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ishlarini davom ettirish orqali mintaqaviy muloqot asoslarini mustahkamlash zarurligi aytib o‘tildi.

Iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

– Biz o‘zaro savdo va investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha oldimizga jiddiy maqsadlar qo‘yganmiz. Endi bu o‘sish qaysi manbalar hisobidan ta’minlanishini belgilab olishimiz kerak, – dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Yirik loyihalarni tezroq ishga tushirishga xizmat qiladigan qo‘shma sanoat va texnologik zanjirlar, umumiy raqamli xizmatlar hamda investitsiya mexanizmlarini shakllantirish vazifalari belgilab berildi.

– Biz bir-birimiz bilan oddiy savdo qilishning o‘zi yetarli bo‘lmay qolgan bosqichga yetib keldik. Yakuniy mahsulotni birgalikda yaratishimiz kerak. “Olti iqtisodiyot – bitta mahsulot” formulasi biz intilishimiz lozim bo‘lgan maqsad mohiyatini yaxshi ifodalaydi, – dedi Prezidentimiz.

Ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun 2027-yilda Xivada Markaziy Osiyo va Ozarbayjon biznes forumini o‘tkazish, shuningdek, qo‘shma investitsiya loyihalarini moliyaviy-texnik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus platformani tashkil etish taklif qilindi.

Savdo va investitsiyalar vazirlari kengashiga Ashxoboddagi navbatdagi uchrashuvda

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 9-oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON DAVLAT RAHBARLARINING SAKKIZINCHI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Masalalarning navbatdagi katta bloki texnologik rivojlanish bilan bog‘liq.

Sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash allaqachon sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, davlat boshqaruvini o‘zgartirmoqda.

Mamlakatlarimiz iqtisodiyotining ishlab chiqarish samaradorligi va kelajakda raqobatlasha olish qobiliyati ko‘p jihatdan shu texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli loyihalar ko‘pincha yirik infratuzilmaviy qurilishga qaraganda tezroq natijaga erishish imkonini beradi.

Shu bois mamlakatlarimiz imkoniyatlarini birlashtirish va Umumiy hisoblash infratuzilmasini yaratishni boshlashni taklif qilamiz. Milliy ma’lumotlar markazlarining o‘zaro bog‘langan tarmog‘i uning asosi bo‘lishi mumkin. Bu hisoblash quvvatlaridan samaraliroq foydalanish, o‘zimizning raqamli mahsulotlarimizni rivojlantirish va sun’iy intellekt sohasida yirik loyihalar uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Biroq faqat infratuzilmaning o‘zi yetarli emas. Biz uchun bir vaqtning o‘zida mutaxassislar, ilmiy tadqiqotlar va kuchli texnologik kompaniyalar kerak. Shu bois, tarmoq uchun kadrlarni tayyorlash bo‘yicha qo‘shma dasturlarni ishga tushirish, ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va texnologik tadbirkorlik uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratishni taklif qilamiz.

Va nihoyat, mintaqamiz kelajagi uchun eng muhim masalalardan biri – bu inson resurslari.

Mamlakatlarimiz katta demografik salohiyatga ega. Aholi soni oshmoqda, yoshlar ko‘paymoqda va mintaqa iqtisodiyoti o‘n, yigirma, o‘ttiz yildan keyin qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan aynan ularning ta’limi va kasbiy tayyorgarligi sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu bois ta’lim va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamkorligimizda alohida o‘rin egallashi lozim. Biz kelgusida mamlakatlarimiz iqtisodiyotiga qanday mutaxassislar kerak bo‘lishini yaxshiroq tushunib olishimiz kerak. Buning uchun talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqishni taklif qilamiz. Unda bugungi kunda mutaxassislar tanqisligi sezilayotgan va yaqin yillarda talab o‘sib boradigan yo‘nalishlar bo‘yicha mamlakatlarimizning prognoz ma’lumotlarini birlashtirish mumkin.

Bu universitetlar va kasb-hunar ta’limi muassasalariga iqtisodiyotning real ehtiyojlarini oldindan hisobga olish imkonini beradi.

Istiqbolda biz mintaqaning bir nechta mamlakatida bir vaqtning o‘zida amalga oshirilayotgan aniq yirik loyihalar uchun ham kadrlar tayyorlay olamiz. Shu tariqa, ta’lim sanoat, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va boshqa tarmoqlar rivoji bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Muhtaram davlat rahbarlari!

So‘nggi yillarda biz ko‘p narsaga erishdik. Endi bu o‘zgarishlarni mustahkamlash va hamkorligimizni kelgusi o‘n yilliklar davomida barqaror qilish muhimdir.

Formula oddiy: taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida birdamlik va ishonch.

Biz kelgusi avlodlarga qanday mintaqa qoldirishimiz uchun javobgarmiz. U tinch, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishi va odamlarga munosib yashash, mehnat qilish, o‘qish hamda farzandlarni voyaga yetkazish imkoniyatlarini berishi kerak.

Ozarbayjonni Maslahat uchrashuviga raislikni qabul qilib olgani bilan tabriklaymiz.

Ishonchimiz komilki, Ozarbayjon rahbarligida formatimiz doirasidagi ishlar qo‘shimcha sur’atga ega bo‘ladi, qardoshlik hamkorligi esa birlik, ishonch va birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

So‘zimning yakunida hurmatli Sardor Gurbanguliyevich Berdimuhamedovga mehmondo‘st Turkmaniston zaminidagi samimiy qabul va uchrashuvimiz ajoyib tashkil etilgani uchun yana bir bor samimiy minnatdorlik bildiraman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON: HAMKORLIKDAN MUSHTARAK TARAQQIYOT SARI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

– Yangi transport yo‘laklari bo‘ylab ishlab chiqarish korxonalari, logistika va xizmat ko‘rsatish obyektlari, sanoat zonalari paydo bo‘lishi kerak. Shunda transport yo‘nalishi o‘z atrofida iqtisodiy faollikni yuzaga keltirib, u o‘tadigan har bir davlatga ancha katta samara keltiradi, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadda Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha kengashni tashkil etishni tezlashtirish va uning birinchi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazish taklif qilindi.

Energetika sohasiga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. Mintaqa uglevodorodlardan tortib, gidroenergetika, quyosh va shamol generatsiyasigacha bo‘lgan turli resurslar va katta salohiyatga ega ekani qayd etildi.

“Yashil” rivojlanishning ahamiyatini hisobga olib, past uglerodli energetika salohiyati bo‘yicha qo‘shma konsepsiyani tayyorlash tashabbusi ilgari surildi. Bu yangi generatsiya quvvatlarini qurish, zamonaviy energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish va yangi energetika yo‘laklarini yaratish bo‘yicha ishlarni yaxshiroq muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Suv resurslari va iqlim o‘zgarishi ham birgalikda yechim topishni talab qiladigan yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatildi. Zamonaviy raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalardan keng foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligini e’lon qilishga doir umumiy tashabbusni to‘liq ro‘yobga chiqarishga chaqirildi.

Kelgusi yili O‘zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik qilishini inobatga olib, jamg‘arma faoliyati samaradorligini oshirish, yangi ekologik loyihalarni ishga tushirish va qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar taqdim etildi.

Afg‘oniston bilan suv resurslaridan foydalanish masalalari yuzasidan mintaqa barcha mamlakatlarining manfaatlarini hisobga olgan holda doimiy va predmetli muloqotni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratildi.

Havoning ifloslanishi mintaqa mamlakatlari shaharlari uchun jiddiy muammolardan biri ekani ta’kidlandi. Bunga javoban O‘zbekiston ilgari surgan “Markaziy Osiyo toza havosi” xalqaro konsorsiumi faoliyatini mintaqa mamlakatlaridagi sanoat zonalari, agroklasterlar va transport uzellarini ekologik modernizatsiya qilish bo‘yicha pilot dasturdan boshlash taklif etildi.

Ahamiyati tobora ortib borayotgan yana bir yo‘nalish – muhim minerallar. O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Muhim minerallar bo‘yicha mintaqaviy alyansni shakllantirish ishlarini faollashtirish, dastlabki qadamlardan biri sifatida Markaziy Osiyodagi muhim minerallar zaxiralarining yagona raqamli xaritasini yaratish taklif qilindi.

Navbatdagi yirik masalalar majmui texnologik taraqqiyotga bag‘ishlandi.

– Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bilan ishlash sanoat, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va davlat boshqaruvini allaqachon o‘zgartirmoqda. Iqtisodiyotlarimizning unumdorligi va kelajakda raqobatlasha olishi ko‘p jihatdan shu texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi, – dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlari imkoniyatlarini birlashtirish va o‘zaro bog‘langan milliy ma’lumotlar markazlari tarmog‘iga asoslanadigan umumiy hisoblash infratuzilmasini yaratishni boshlash taklif etildi.

Odamlar mintaqaning kelajagini belgilovchi eng muhim omil ekani ta’kidlandi.

– Mamlakatlarimiz katta demografik salohiyatga ega. Aholi soni o‘smoqda, yoshlar ko‘paymoqda. O‘n, yigirma, o‘ttiz yildan keyin mintaqa iqtisodiyoti qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan ularning ta’limi va kasbiy tayyorgarligi sifatiga bog‘liq, – dedi davlatimiz rahbari.

Kelgusida mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday mutaxassislar kerak bo‘lishini tahlil qilish asosida talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqish taklif etildi. Unda bugunning o‘zida mutaxassislar yetishmayotgan va yaqin yillarda talab ortishi kutilayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha prognozlarni jamlash nazarda tutilmoqda.

Shu asosda universitetlar va professional ta’lim muassasalari iqtisodiyotning haqiqiy ehtiyojlarini oldindan hisobga olib, sanoat, transport, energetika, raqamli texnologiyalar va boshqa tarmoqlardagi yirik loyihalar uchun kadrlar tayyorlay oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining yakunida so‘nggi yillarda ko‘p narsaga erishilganini ta’kidladi. Endi bu yutuqlarni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni o‘n yillar davomida barqaror rivojlanadigan tizimga aylantirish muhim.

– Formula oddiy: hamjihatlik va ishonch – taraqqiyot va xavfsizlik yo‘lida. Biz kelgusi avlodlarga qanday mintaqani qoldirishimiz uchun mas’ulmiz. U tinch, xavfsiz, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishi, odamlarga munosib yashash, ishlash, o‘qish va farzand tarbiyalash imkoniyatini berishi kerak, – dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Sammitda Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon yetakchilari ham so‘zga chiqdilar. Davlat rahbarlari uchrashuv yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonotni qabul qildilar hamda bir qator ko‘p tomonlama tartibga soluvchi hujjatlarga oid qarorni imzoladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Serdar Berdimuhamedovni Turkmaniston mustaqilligining 35 yilligi hamda Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi samarali raisligi bilan tabrikladi.

O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘sib bormoqda, “Shovot – Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

O‘zaro savdo hajmini bir necha barobar oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi hamda sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi kabi sohalarda Kooperatsiya dasturini qabul qilish va uni ikki mamlakat hududlari darajasida ham amalga oshirish muhimligi ta’kidlandi.

Uchrashuv yakunida Oliy darajadagi strategik sheriklik kengashini tuzish to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Mazkur hujjat siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirish hamda ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Avazadagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston – Armaniston ko‘p qirrali munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda faol aloqalar yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yaqinda ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazildi.

O‘zaro savdo hajmi ortib bormoqda, mamlakatimizda Armaniston sarmoyasi ishtirokida 80 ta korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Poytaxtlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnov yo‘lga qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligi, zargarlik, yengil sanoat, farmatsevtika, kimyo va turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish muhimligi ta’kidlandi.

Bu borada Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va qo‘shma ishbilarmonlik tadbirlarini samarali o‘tkazish zarurligi qayd etildi.

Tomonlar xalqaro ahamiyatga molik masalalar va ko‘p tomonlama tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni ham muhokama qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari delegatsiyalari rahbarlari bilan birgalikda Turkmanistonning “Avaza” milliy sayyohlik zonasida tashkil etilgan milliy taomlar festivaliga tashrif buyurdi.

Festivalda to‘qqiz mamlakat – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmanistonning pazandachilik an’analari namoyish etildi.

O‘zbekiston stendida mehmonlar yurtimizning turli hududlariga xos non va pishiriqlar, qandolat mahsulotlari hamda quritilgan mevalar bilan tanishdilar. Ularga novvoylikning ko‘p asrlik an’analari haqida so‘zlab berildi. Oshpazlar somsaning bir necha turini, shuningdek, shivit oshi va tuxumbarak kabi Xorazm taomlarini tayyorlash, non yopish jarayonlarini namoyish etdi. O‘zbek palovining turli xillari va milliy oshxonamizning boshqa taomlari ham mehmonlar e’tiboriga havola qilindi.

Ekspozitsiyadan xalq hunarmandchiligi namunalari ham o‘rin oldi. Rishton, Buxoro, Marg‘ilon va Samarqand hunarmandlari o‘z mahsulotlari hamda ularni tayyorlashning an’anaviy usullarini namoyish etdilar. Milliy kuy-qo‘shiqlar va raqslar festivalga bayramona ruh bag‘ishladi.

Delegatsiyalar rahbarlari O‘zbekiston stendi bilan tanishgach, festivalning boshqa milliy ekspozitsiyalarini ko‘zdan kechirdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘zA.

Munosabat

EKOLOGIK MASALALARGA BIRGALIKDA YECHIM IZLANADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida mintaqamizning ekologik kelajagiga daxldor qator muhim tashabbuslar ilgari surildi.



Xususan, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi va havoning ifloslanishi bir mamlakat doirasida hal qilib bo‘lmaydigan masalalarga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik muammolarga birgalikda, hamkorlik orqali yechim izlash zarurati tobora kuchaymoqda.

Prezidentimiz o‘z nutqida suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligini to‘liq amalga oshirish, suv resurslarining raqamli monitoringi va irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish taklifini ilgari surdi.

O‘zbekistonning kelgusi yildan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik qilishi ham mintaqaviy ekologik kun tartibida muhim bosqich bo‘ladi. Raislik davridan yangi ekologik loyihalarni ishga tushirish va qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larni jalb etish uchun foydalanish tashabbusi Orolbo‘yi muammosini xalqaro hamkorlik va amaliy loyihalar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Yana bir muhim tashabbus – “Markaziy Osiyo toza havosi” xalqaro konsorsiumini tuzish taklifi. Ayniqsa, uning faoliyatini sanoat zonalari, agroklasterlar va transport bog‘lamalarini ekologik modernizatsiya qilishga qaratilgan qo‘shma pilot loyihalardan boshlash taklifi e’tiborga molik. Chunki havoning ifloslanishi bugun mintaqadagi yirik shaharlarda aholining kundalik hayotiga bevosita ta’sir etayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Prezidentimizning nutqida “yashil” energetikaga ham alohida urg‘u berildi. Markaziy Osiyoning quyosh va shamol quvvati salohiyatidan foydalanish, energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish va yangi yo‘laklarni yaratishni muvofiqlashtirish bo‘yicha kamuglerodli energetika salohiyatiga doir qo‘shma konsepsiya ishlab chiqish taklifi mintaqaning kelajakdagi siyosati uchun muhim yo‘nalishlarni belgilab bermoqda.

Endigi vazifa bu tashabbuslarni aniq loyihalar, o‘lchab bo‘ladigan natijalar va samarali parlament nazorati bilan ta’minlashdan iborat. Chunki mintaqaning ekologik xavfsizligi – kelajak masalasi emas, bugunning o‘zida hal etilishi kerak bo‘lgan umumiy vazifadir.

Anvar TO‘YCHIYEV,
Oliy Majlis Senatining
Agrar, suv xo‘jaligi masalalari
va ekologiya qo‘mitasi raisi.

O‘ZARO ISHONCH VA MINTAQA KELAJAGIGA UMUMIY MAS’ULIYAT

O‘zbekiston va Turkmaniston xalqlarini asrlar davomida shakllangan tarixiy yaqinlik, mushtarak qadriyatlar, urf-odatlar va samimiy qo‘shnichilik munosabatlari bog‘lab turadi. Bugun ana shu azaliy do‘stlik ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning mustahkam poydevoriga aylanib, strategik sheriklikni yangi mazmun bilan boyitmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilda O‘zbekiston – Turkmaniston munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Yuqori darajadagi muntazam muloqot, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillari asosida siyosiy aloqalar izchil rivojlanmoqda. 2017-yilda Strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Davlat rahbarlari o‘rtasidagi muntazam muloqot bilan bir qatorda parlamentlararo aloqalar ham tobora faollashmoqda. O‘zbekiston Oliy Majlisi va Turkmaniston Mejlisi parlament delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari hamda xalqaro parlament maydonlaridagi muloqotlar ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Parlament diplomatiyasi qonun ijodkorligi bo‘yicha tajriba almashish, ikki tomonlama munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish va umumiy manfaatlarga daxldor masalalar yuzasidan fikrlashish uchun muhim maydon bo‘lib bormoqda.

Siyosiy ishonchning mustahkamlanishi iqtisodiy va transport aloqalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,1 mlrd. dollardan oshgan bo‘lsa, uni 2025-2026-yillarda 2 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

“Shovot – Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasining tashkil etilishi esa ikki davlat hududlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.



Ana shu izchil munosabatlar shu kunlarda Turkmanistonda bo‘lib o‘tayotgan yuqori darajadagi uchrashuvlarda ham o‘z ifodasini topmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan ushbu mamlakatda amaliy tashrif bilan bo‘lib turibdi. Davlatimiz rahbari “Avaza” milliy sayyohlik zonasida o‘tgan Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

Aytish joiz, Maslahat uchrashuvidagi nutq mintaqamizning kelajagiga daxldor muhim tashabbus va aniq amaliy takliflarga boy bo‘ldi. Ayniqsa, Prezidentimizning “Olti iqtisodiyot – bitta mahsulot” formulasi e’tiborga molik. Bu yondashuv mamlakatlar o‘rtasidagi oddiy savdo munosabatlaridan yuqori bosqichga o‘tib, qo‘shma sanoat zanjirlari, yangi ishlab chiqarishlar va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishni nazarda tutadi.

Transport va logistika, energetika, suv resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” iqtisodiyot, muhim minerallar, sun’iy intellekt va kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslar ham mintaqaning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar ta’limi va mehnat bozori ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishga qaratilgan “talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasi”ni yaratish g‘oyasi ham muhim takliflardan biri bo‘ldi. Chunki mintaqamizning eng katta boyligi inson kapitali sanaladi.

Bugun Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhiti tobora mustahkamlanib borayotgani quvonarli, albatta. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, taraqqiyot va xavfsizlikning asosiy sharti – birdamlik va ishonch. Bu tamoyillar nafaqat davlatlararo munosabatlarni, balki xalqlarimiz farovonligini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston va Turkmaniston munosabatlarining yana bir muhim jihati shundaki, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik mintaqaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash har ikki davlat tashqi siyosatining zaruriy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu jihatdan, davlatimiz rahbarining MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtiroki ham ko‘p tomonlama sheriklik nuqtayi nazaridan muhimdir. Sammitda Hamdo‘stlik doirasidagi hamkorlik natijalari sarhisob qilinib, uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama etiladi.

Azaliy do‘stlikdan strategik sheriklik sari bosib o‘tilayotgan yo‘l – xalqlarimiz orasidagi tarixiy yaqinlik, davlatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy ishonch va mintaqa kelajagiga umumiy mas’uliyatning amaliy ifodasidir.

Guldana AVEZDURDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

INSON KAPITALI – RIVOJLANISH ASOSI

Bugun dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, iqtisodiy raqobat va global xavf-xatarlar sharoitida mintaqaviy hamkorlik har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarixi, madaniyati, qadriyatlari hamda taqdiri bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun o‘zaro ishonch va hamjihatlik barqaror taraqqiyotning muhim shartidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqida mintaqaviy hamkorlikni yangi, amaliy natijalarga yo‘naltirilgan bosqichga olib chiqishga qaratilgan aniq tashabbuslarni ko‘rishimiz mumkin.

Nutqdagi yana bir muhim jihatga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Bu – inson resurslari, yoshlar ta’limi va ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalasi. Davlatimiz rahbari mintaqamiz kelajagi uchun eng muhim masalalardan biri aynan inson resurslari ekanini alohida ta’kidladi.

Darhaqiqat, bugun Markaziy Osiyo ulkan demografik salohiyatga ega. Aholi soni ortib, yoshlar ulushi ko‘payib bormoqda. Lekin bu demografik imkoniyatdan qay darajada samarali foydalanishimiz, avvalo, yoshlarimizga bugun qanday ta’lim berayotganimizga, ularni qanday kasblarga tayyorlayotganimizga va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun qanday sharoitlar yaratayotganimizga bog‘liq.



Shu ma’noda, Prezidentimiz masalaga faqat bugungi kun ehtiyojlari nuqtayi nazaridan emas, balki o‘n, yigirma, hatto o‘ttiz yillik istiqboldan kelib chiqib yondashgani e’tiborga molik. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan talab yuqori bo‘lgan kasblar va kompetensiyalarning mintaqaviy atlasini ishlab chiqish taklifi ilgari surilgani muhim ahamiyatga ega.

Bu tashabbusning mohiyati shundaki, endi biz yoshlarni shunchaki oliy ma’lumotli mutaxassis sifatida tayyorlash bilan cheklanmasdan, kelajak iqtisodiyotiga aynan qanday bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar zarurligini oldindan belgilashimiz kerak. Masalan, bugun sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, “yashil” energetika, zamonaviy sanoat va logistika sohalari jadal ravnaq topmoqda. Demak, ta’lim tizimi ham mazkur o‘zgarishlarga mos ravishda rivojlanishi zarur.

Men yosh avlod vakili sifatida bu yerda yana bir muhim jihatni ko‘raman. Prezidentimiz takliflari orqali ta’lim va iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni nafaqat milliy, balki mintaqaviy darajada ta’minlash masalasi qo‘yilmoqda. Ya’ni Markaziy Osiyo mamlakatlari kelajakda umumiy yirik iqtisodiy loyihalar uchun yetuk mutaxassislarni ham birgalikda tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Bugun biz inson kapitaliga qanchalik ko‘p sarmoya kiritsak, ertaga Markaziy Osiyoning taraqqiyoti uchun shunchalik mustahkam poydevor yaratgan bo‘lamiz.

Laylo ASLONOVA,
Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamenti raisi.

AQShning Filadelfiya shahridagi “Philadelphia City Hall – North Apron” manzilida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini rasmiy ko‘tarish marosimi bo‘lib o‘tdi.

TINCHLIK VA BARQARORLIKNING MUHIM SHARTI

Inson huquqlari me’yorlariga rioya etilishini ta’minlash, qurolli mojarolar sharoitida ularni himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish masalalari bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb.

Xalqaro anjuman

Ayni masalalar Tanzaniyaning Arusha shahrida bo‘lib o‘tayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi kun tartibidan ham o‘rin oldi. Tadbir doirasida bo‘lib o‘tgan panel munozaralarida so‘zga chiqqan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilik, byudjet mexanizmlari va parlament nazorati orqali samarali amalga oshirish zarurligiga ishtirokchilar e’tiborini qaratdi.



Shuningdek, mas’ul idoralarning vazifalarini aniq belgilash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni xolisona tergov qilish va aybdor shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish va bu bo‘yicha milliy hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhimligini qayd etdi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston inson hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish, nizo va mojarolarni xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yor hamda tamoyillari asosida, tinch yo‘l, muloqot va diplomatik vositalar orqali hal qilish tarafdori.

Mamlakatimiz uchun shaxs erkinligini ta’minlash, inson hayoti va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois xalqaro huquq talablarini milliy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, uni qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish va mas’ul institutlar salohiyatini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Panel munozarasida bildirilgan fikr va takliflar xalqaro gumanitar huquq me’yorlarini samarali amalga oshirish, inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlarini yanada kuchaytirish hamda parlamentlarning ushbu jarayondagi rolini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi. Zero, shaxs huquqlari buzilishining oldini olish, uni o‘z vaqtida himoya qiladigan samarali mexanizmlarni ishga tushirish va adolatni ta’minlashga qaratilgan izchil choralar jamiyatda qonun ustuvorligiga ishonchni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim shartidir.

PARLAMENT DIPLOMATIYASI:

SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI

Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva qator uchrashuvlar o‘tkazdi.

Uchrashuv

Xususan, Gruziya parlamenti rahbari Shalva Papuashvili bilan muloqotda O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, joriy yil iyul oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Gruziyaga davlat tashrifi ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Parlamentlarning ixtisoslashtirilgan qo‘mitalari hamda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha guruhlar o‘rtasidagi aloqalarni faollashtirish, ularni aniq masalalar muhokamasiga kengroq jalb qilish istiqboldagi muhim vazifalardan biri ekani ta’kidlandi.

Shuningdek, 2027-2028-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Mazkur hujjat parlamentlararo muloqotni tizimli davom ettirish, ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash va O‘zbekiston – Gruziya strategik sherikligini parlamentlar darajasida qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Muloqotda savdo-iqtisodiy aloqalar, transport bog‘liqligi, investitsiyalar, raqamlashtirish kabi yo‘nalishlardagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi. Ta’lim, turizm va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish muhimligi aytildi.

Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Vakillar palatasi Raisining birinchi o‘rinbosari Xamis Atiye bilan suhbat chog‘ida O‘zbekiston va ushbu mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston va Iordaniya munosabatlari o‘zaro hurmat, yaqin ma’naviy va madaniy qadriyatlarga asoslanadi. Davlat rahbarlari o‘rtasidagi ishonchli hamda muntazam muloqot esa ikki tomonlama hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Parlamentlararo munosabatlarni izchil davom ettirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Joriy yil fevral oyida Iordaniya Senati Raisi Faysal al-Fayozning O‘zbekistonga tashrifi doirasida ikki mamlakat parlamentlari yuqori palatalari o‘rtasida Anglashuv memorandumi imzolangani parlamentlararo muloqotni yangi bosqichga olib chiqish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratgani ta’kidlandi.

Shu munosabat bilan parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha guruhlar va tegishli qo‘mitalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish, qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish hamda davlat rahbarlari darajasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga parlamentlar tomonidan ko‘maklashish muhimligi e’tirof etildi.

Uchrashuvda sanoat kooperatsiyasi, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, logistika va turizm sohalaridagi sheriklikni kengaytirish, ta’lim va ilm-fan sohalarida aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

SUN’IY INTELLEKT XAVF EMAS, IMKONIYAT YARATISHI LOZIM

Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda bolalar sun’iy intellekt texnologiyalarini kattalarga nisbatan tezroq o‘zlashtirmoqda va ularning huquqlarini himoyalash dunyo parlamentlari oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Seminar

Parlamentlararo Ittifoqning 153-assambleyasi doirasida “Bolalar huquqlariga xizmat qiluvchi sun’iy intellektni rivojlantirish” mavzuida bo‘lib o‘tgan xalqaro seminar ham ayni shu masalaga bag‘ishlandi.

Unda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov qatnashib, ma’ruza qildi.

Qayd etilganidek, sun’iy intellekt bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga zararli kontent, kiberbulling, raqamli qaramlik va soxta tasvirlar tarqalishi kabi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda.

Senator o‘z chiqishida sun’iy intellekt tizimlarini joriy qilishdan oldin ularning bolalar xavfsizligiga ta’sirini baholash, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalashning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish hamda zararli kontentni tezkor aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirishni taklif qildi. O‘z navbatida, O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirishning huquqiy asoslari shakllantirilayotgani, 2024-yilda tegishli strategiya imzolangani va 2026-yildan sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy qoidalari kuchga kirganini qayd etdi.

Muhokama davomida texnologik kompaniyalar faoliyatida bolalar uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan “raqamli g‘amxo‘rlik burchi” (digital duty of care) talabini joriy etish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Seminar ishtirokchilari sun’iy intellektni rivojlantirishda bola huquqlari va manfaatlari ustuvor bo‘lishi, texnologiyalar esa ularning xavfsizligi, ta’limi va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlashdi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MA’MURIY SUDLOV TIZIMI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRILADI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksini tasdiqlashga qaratilgan qonun loyihasi yuzasidan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarda qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat organlari va mansabdor shaxslar qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2017-yildan mamlakatimizda ma’muriy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘tgan davrda ushbu sudlar tomonidan qariyb 150 mingta ish ko‘rib chiqilgan. Ularning 55 foizi bo‘yicha fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan huquqlari tiklangan.

Shu bilan birga, amaliyot amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va sud qarorlarining samarali ijrosini ta’minlashga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Yangi tahrirdagi kodeks loyihasida ma’muriy sud ish yurituviga da’vo institutini kiritish, uning turlarini aniq belgilash, jumladan, jamoaviy da’vo – “Class Action” institutini joriy etish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlarning ma’muriy hujjatga bo‘lgan ishonchini himoyaga olish, arizalarni qabul qilish va ishlarni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq protsessual tartib-taomillarni takomillashtirish taklif etilmoqda.



Shahnoza JOLDASOVA, qo‘mita a’zosi:

– Bugun mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar jadal olib borilyapti. Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari uchun javobgarlik va mas’uliyatni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jarayonlar ma’muriy sudlov bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni ham zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etayotir. Bu esa Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksni yangi tahrirda qabul qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Biz mazkur qonun loyihasi ustida ishlash jarayonida amaliyotdagi masalalarni chuqur tahlildan o‘tkazib, fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarining ishonchli himoyasiga xizmat qiladigan samarali normalarni shakllantirishga e’tibor qaratamiz.

Yig‘ilishda qonun loyihasida nazarda tutilgan normalar amaliyot nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilib, ularni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Ta’kidlanganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini sud orqali himoya etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat organlari faoliyati ustidan ta’sirchan sud nazoratini kuchaytirish hamda ma’muriy sudlov tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Sayyor yig‘ilish

MUAMMOLARNI HAL ETISHDA SAMARALI VOSITA

Joylarda o‘tayotgan sayyor qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda kutilgan natijalarni bermoqda. Bugungi kunda xalq bilan muloqot, ularning dardiga quloq tutish, shu orqali aholining roziligiga erishishda Oliy Majlis Senati a’zolarining ham o‘z o‘rni bor.

Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi Buxoro viloyatida sayyor majlis o‘tkazdi. Unda aholi bandligini ta’minlash, barqaror daromad manbalarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini kasb-hunarga o‘qitish borasida hamda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Buxoro viloyatida ham kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining daromad manbalarini ko‘paytirish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinyapti. Xususan, viloyatda mahallabay ishlash tizimi asosida har bir oilaning ijtimoiy holati chuqur o‘rganilib, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Statistik raqamlarga ko‘ra, 2025-yilda viloyatda 277,9 ming fuqaro daromadli mehnat bilan band qilingan, reja ko‘rsatkichlari 103 foizga bajarilgan. Shuningdek, joriy yil boshida 31,6 ming kambag‘al oilaning 126,4 ming a’zosi aniqlangan bo‘lib, kambag‘allik darajasi 6 foizni tashkil etgan.

Shu yil yanvar – iyul oylari davomida fuqarolarni barqaror bandlik yo‘nalishida xizmatlar bilan qamrab olish, rejadagi ishlarni ortig‘i bilan bajarish evaziga viloyatda kambag‘allik darajasi yil boshidagiga nisbatan 1,6 foiz kamayib, 4,4 foizni tashkil etgan.

Senatorlar viloyatda kambag‘allik toifasiga kiruvchi oilalar bilan manzilli ishlash, ularga subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o‘qitish hamda bandlikni ta’minlash borasidagi ishlarni tanqidiy-tahliliy ruhda ko‘rib chiqdi.

Muhokama jarayonida aholini ish bilan band qilishda o‘z yechimini kutib turgan masalalar, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tildi.

Ularni bartaraf etish, mas’ul vazirlik va idoralar faoliyatini yanada kuchaytirish, aholi bandligi hamda daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini qat’iy nazoratga olish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Senatning Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Sayyora Abdikarimova Xorazm viloyatining Urganch tumanida sayyor qabul o‘tkazdi.

Qabul davomida 17 nafar fuqaroning murojaatlari tinglanib, uy-joy, bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish, kommunal soha hamda ichki ko‘chalarni asfaltlash bilan bog‘liq qator masalalar ko‘tarildi. Fuqarolar bildirgan har bir murojaat yuzasidan tegishli tushuntirishlar, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha mas’ullarga ko‘rsatma va tavsiyalar berildi.

Murojaatlarni qonunchilik talablari asosida ko‘rib chiqish, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda ko‘tarilgan masalalarga amaliy yechim topishga alohida e’tibor qaratildi va mas’ul tashkilotlar bilan hamkorlikda zarur choralar ko‘rilishi, belgilangan vazifalarning ijrosi ta’minlanishi, ularning o‘z vaqtida bajarilishi esa nazoratga olinishi ma’lum qilindi.

“Xalq so‘zi”.

MILLIY YUKSALISH POYDEVORI

Prezidentimizning Ta’lim va ilm-fan vazirligini tashkil etish to‘g‘risidagi farmoni keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Haqiqatan ham, so‘nggi yillarda ilm-fan, texnika shunchalik tez taraqqiy etmoqdaki, agar o‘zgarish va yutuqlar real hayotga, ayniqsa, ta’limga tezroq tatbiq etilmasa, inson kapitali rivoji sekinlashib, mamlakatning global raqobatbardoshligi tushib ketishi turgan gap. Buning oqibatlari esa malakali kadrlar yetishmovchiligi, iqtisodiy qoloqlik, raqamli dunyodan ortda qolish, eng xavotirlisi, intellektual dunyo emigratsiyasi bilan bog‘liq.

Mulohaza

Bu jarayonda, shubhasiz, inson kapitalini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, ta’limning barcha turlari o‘rtasidagi o‘zaro uzviylik ta’minlanishi lozim. Albatta, bunda ilg‘or xorijiy tajriba hisobga olingan holda sohada yagona samarali boshqaruvni joriy etish ham dolzarb ahamiyatga ega. Shu ma’noda, Ta’lim va ilm-fan vazirligining tashkil etilishi sohada yangi bosqichni boshlab beruvchi muhim qadam bo‘ldi.

Ta’kidlash lozim, so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu mamlakatning yangi strategik maqsadlari – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish bilan bevosita bog‘liq. Kelgusi o‘n yillikda mamlakatimizning milliy yuksalish davrini ta’minlashga xizmat qiladigan yettita milliy dasturning birinchisi ham ta’lim-tarbiya, intellekt bilan bog‘langani ana shundan. Global dunyo har qanday davlatning kelajagi bilim, aql-idrokka bog‘liqligini yana bir bor isbotlamoqda.

Shu bois Yangi O‘zbekiston kelajagi maktabdan boshlanadi, degan g‘oya asosida, avvalo, yoshlarga munosib ta’lim-tarbiya berish, mustaqil fikrlaydigan, bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, intellektual yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Muhimi, bu harakatlar amalda o‘z isbotini topyapti.



Ma’lumki, maktabgacha ta’lim farzandlarimizning shaxs sifatida shakllanishi, uning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Shu bois, avvalo, ushbu sohani rivojlantirishga har qanchongidan-da katta e’tibor qaratildi. Buning natijasini quyidagi raqamlarda ham ko‘rish mumkin. 2016-yilda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim bilan qamrov 27 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda 78 foizga yetkazish maqsad qilingan. Bolalarning 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrovini esa 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

O‘tgan o‘n yilda yurtimiz aholisi 8 millionga ko‘paydi va maktablarda 1,5 million qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratildi. Istiqlolning ilk yilida 8,5 mingta maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, bugun ular soni 10 200 tadan oshdi va bu yiliga o‘rtacha 48 ta maktab qurildi, degani. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilgani esa farzandlarimizning rivojlangan xorijiy o‘quv maskanlaridan kam bo‘lmagan darajada chuqur bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Natijada yaqinda e’lon qilingan “PISA” – Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturining 2025-yildagi tadqiqoti natijalariga ko‘ra, o‘zbekistonlik 15 yoshli o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilimi keskin o‘sgani aniqlandi. Mamlakatimiz ushbu yo‘nalishda 91 ta davlat ichida 48-o‘rinni egallab, MDHda yetakchiga aylandi.

Oliy ta’lim inson kapitalini rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda jamiyatda innovatsiya va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy kuch sanaladi. Shu bois ushbu sohani rivojlantirish ham Yangi O‘zbekiston siyosatining bosh maqsadiga aylandi. Natijalarni esa quyidagi raqamlarda ko‘rish mumkin. 2017-yilda mamlakatimizda 77 ta oliy o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatar va ularning yettitasi nodavlat edi. Talabalar qamrovi esa 10 foizga ham yetmasdi. Bugun esa oliygohlar soni 205 taga yetdi va ularning 70 dan ortig‘ini nodavlat, 30 tasini esa xorijiy OTM filiallari tashkil etmoqda. 2026-yil yakuniga ko‘ra, yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovini 45 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Albatta, bularning barchasi ta’lim va ilm-fanni mamlakat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonda izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Sohadagi islohotlarni yagona tizim asosida uyg‘unlashtirish esa bu jarayonda yangi imkoniyatlarni ochishi, shubhasiz. Endi asosiy vazifa erishilgan natijalarni mustahkamlash, ta’lim sifatini yanada oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tezkor tatbiq etish va yoshlarni zamonaviy kasb hamda kompetensiyalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislar qilib tarbiyalashdan iborat.

Go‘zal SAMIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

DEPUTATLAR VA YOSHLAR MULOQOTI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Odil sudlov akademiyasining talabalari bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi a’zolari muloqot davomida yoshlarga Qonunchilik palatasi faoliyati, qonun ijodkorligi jarayoni hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining mazmun-mohiyati haqida atroflicha ma’lumot berdi. Shuningdek, parlament qo‘mitalari va fraksiyalarining vazifalari, muhokama qilinayotgan qonun loyihalari yuzasidan taklif va mulohazalarni shakllantirish, tizimdagi muammolarni o‘rganish hamda ularning huquqiy yechimlarini ishlab chiqish jarayonlari tushuntirib o‘tildi.

Suhbat davomida tinglovchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat etib, sud-huquq sohasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, huquqshunos mutaxassislarni xalqaro standartlar va zamonaviy talablar asosida tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan fikr almashildi.

– Deputatlar ishtirokidagi uchrashuv biz uchun nazariy bilimlarimizni amaliyot bilan bog‘lash nuqtayi nazaridan juda muhim bo‘ldi, – dedi akademiya talabasi Kamronbek Hamidov. – Qonun loyihalarini ko‘rib chiqish tartibi, parlament qo‘mitalari va deputatlarning bu jarayonda faol va mas’uliyatli qatnashuvi haqida olgan bilimlarimizni Qonunchilik palatasida bevosita tanishish orqali yanada mustahkamladik. Bunday uchrashuvlar yosh huquqshunoslarning parlament va qonun ijodkorligiga qiziqishini oshiradi.

Uchrashuvda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, sifatli ta’lim olishi, kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani ta’kidlandi. O‘z navbatida, huquq yo‘nalishida tahsil olayotgan yoshlarning parlament faoliyati bilan bevosita tanishishi, deputatlar va soha mutaxassislari bilan ochiq muloqot qilishi ularning kasbiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etishi aytildi.

Muloqot doirasida yoshlar Parlament kutubxonasi va muzeyida bo‘lib, ularda jamlangan ilmiy-ma’rifiy va tarixiy manbalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida asosiy texnologik qurilmalar ta’mirlangani natijasida dizel yonilg‘isi ishlab chiqarishni 30 foiz, bitum 60 foiz, aviakerosinni esa 5 barobar oshirishga erishildi.

TIBBIY TA’LIM VA ILMIY AN’ANALAR UYG‘UNLIGI

Keyingi o‘n yilda mamlakatimizda tibbiyot sohasida ilm-fan taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratildi. Sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy ta’limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘zlashtirish, ilmiy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Nuqtai nazar

Ayni jarayonda O‘zbekistonning dunyoning rivojlangan davlatlari bilan sog‘liqni saqlash va tibbiy ta’lim sohasidagi hamkorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. E’tiborlisi, bu hamkorlik faqat memorandum va kelishuvlarni imzolash bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Biz talabalar chuqur izlanish olib boradigan, professor-o‘qituvchilar xalqaro tajriba almashadigan, zamonaviy va mamlakatimiz taraqqiyoti uchun zarur yangi ta’lim yo‘nalishlari tashkil etiladigan, malakali mutaxassislar tayyorlanadigan yaxlit ta’lim modelini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz.

Buni O‘zbekiston va Turkiya hamkorligida ochilgan Turkiya Respublikasi Sog‘liq bilimlari universitetining oliygohimizdagi tibbiyot fakulteti misolida ham ko‘rish mumkin. Bu fakultet O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi tarixiy va do‘stona rishtalarni ilm-fan, tibbiy ta’lim va inson kapitali orqali yanada mustahkamlashga qaratilgan amaliy qadamdir.


Auditoriyalardagi ilmiy munozaralar, laboratoriyalarda olib borilayotgan tadqiqotlar, zamonaviy ta’lim metodlarining amaliyot bilan uyg‘unlashuvi bo‘lajak shifokorlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada boyitmoqda. Bu jarayonda Samarqandning asrlar davomida shakllangan ilmiy-ma’rifiy an’analari Turkiyaning zamonaviy tibbiy ta’lim tajribasi bilan uyg‘unlashmoqda.

Bugun O‘zbekiston tibbiy ta’limida zamonaviy meditsina yutuqlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilgan holda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Turkiya universitetlari bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik tobora kengaymoqda.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining xorijiy hamkorlari bilan yo‘lga qo‘ygan aloqalari ham bugun nafaqat ta’lim, balki ilm-fan va innovatsiyalar sohasini qamrab olmoqda. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon tibbiyot universiteti bilan fundamental tibbiyot va xalq tabobati yo‘nalishlarida diplomdan keyingi ta’lim dasturi doirasida qo‘shma o‘quv jarayoni yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda 20 nafardan ortiq talabalarimiz Shinjon tibbiyot universitetida tahsil olib, o‘z bilim va malakasini oshirmoqda.

Italiyaning Piza universiteti bilan hamkorlikda magistratura dasturi tashkil etilgan bo‘lib, unda talabalar oilaviy tibbiyot, kardiologiya, terapiya va nevrologiya yo‘nalishlarida ta’lim olmoqda.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining Vebster universiteti bilan oliy hamshiralik ishini tashkil etish bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturi ham Samarqand davlat tibbiyot universiteti bazasida samarali amalga oshirilyapti. Ushbu dastur doirasida zamonaviy tibbiyotning istiqbolli yo‘nalishlari – genetik muhandislik, molekulyar tibbiyot va mitoxondrial biologiya kabi sohalarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.



Hozirgi dunyoda universitetlarning yolg‘iz holda rivojlanishi qiyin. Ilmiy kashfiyotlar, texnologik yangiliklar va tibbiy amaliyotdagi ilg‘or yondashuvlar chegara bilmaydi. Bir mamlakatda boshlangan tadqiqotning boshqa davlat laboratoriyasidagi ilmiy salohiyat bilan boyitilishi, bir universitetda ishlab chiqilgan usulning minglab kilometr uzoqlikdagi bemor hayotiga ta’sir ko‘rsatishi endilikda tabiiy jarayonga aylandi.

Shu ma’noda, O‘zbekistonda shakllanayotgan zamonaviy tibbiy ta’lim modelini xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar bilan yanada boyitish – oldimizda turgan muhim vazifalardan biri.

> ***Bugun O‘zbekiston tibbiy ta’limida zamonaviy tibbiyot yutuqlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilgan holda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda Turkiya universitetlari bilan bir qatorda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik tobora kengaymoqda.***

Hamkorlikning keyingi bosqichi faqat birgalikda bilim berish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Endi o‘zaro hamjihatlikda yangi bilim va innovatsiyalar yaratishga intilishimiz zarur.

Bir ilmiy muammoni hal etish uchun dunyoning turli hududlaridan bo‘lgan yosh tadqiqotchilarning yonma-yon ishlashi, qo‘shma ilmiy markazlar tashkil etilishi, ko‘p markazli klinik tadqiqotlar o‘tkazilishi muhim. Qo‘shma ilmiy nashrlar sonini ko‘paytirish, talabalar va akademiklar almashinuvini yanada kuchaytirish ham bu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lishi lozim. Zero, akademik hamkorlikning eng yuqori bosqichi bilimni shunchaki ulashish emas, balki uni birgalikda yaratish bilan belgilanadi.

Bugun tibbiyot fani oldida turgan yana bir ulkan imkoniyat sun’iy intellektdir. U radiologik tasvirlarni tahlil qilmoqda, katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlamoqda, klinik qaror qabul qilish jarayonlarida shifokorlarga ko‘maklashmoqda. Ilmiy adabiyotlarni tahlil etish uchun ilgari kunlar talab qilingan bo‘lsa, bugun zamonaviy texnologiyalar tufayli mazkur jarayonni ancha qisqa vaqtda amalga oshirish mumkin.

Albatta, bunday o‘zgarishlardan cho‘chimaslik kerak. Ayni paytda ularni shunchaki kuzatib turish yoki hech qanday tahlilsiz qabul qilish ham to‘g‘ri emas. Biz sun’iy intellekt imkoniyatlarini chuqur o‘rganishimiz, uning afzalliklaridan samarali foydalanishimiz, shu bilan birga, tibbiyotning eng muhim tamoyillari – inson hayoti, shifokor mas’uliyati, kasbiy etika va ilmiy dalillarga sodiqlikni ustuvor saqlashimiz lozim.

Tibbiyot va sog‘liqni saqlash yo‘nalishida tahsil olayotgan yoshlar zimmasida juda katta mas’uliyat bor. Bu mas’uliyatni ular har doim his qilishi kerak. Bugun O‘zbekistonda ilmiy izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchining mehnati ertaga xalqaro tibbiyot hamjamiyati e’tiboriga tushishi, uning ilmiy ishi jahon tibbiyoti taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkin.

Biz yaratayotgan ta’lim muhiti, tashkil etayotgan ilmiy markazlar, yo‘lga qo‘yayotgan xalqaro hamkorliklar va yoshlarga berayotgan imkoniyatlar aynan shu buyuk maqsadga xizmat qilishi kerak.

Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan ilm va ta’lim ko‘prigi, mamlakatimizning ilm-fan xabiga aylanish sari intilishi zamirida ham ana shu maqsad mujassam. Umumiy tarixiy merosimizni faqat yod etish bilan kifoyalanmasdan, uning ilmiy an’analarini yangi mazmun bilan boyitish, shu meros poydevorida zamonaviy va raqobatbardosh tibbiyotni barpo etish muhim.

Prezidentimiz tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan uchrashuvda ta’kidlaganidek: “Tibbiy ta’limdagi islohotlarimizni davom ettirib, oilaning barcha yoshdagi a’zolariga malakali tibbiy xizmat ko‘rsata oladigan oilaviy shifokorlik institutini rivojlantirishimiz zarur”. Bu vazifa bizdan zamonaviy bilim berishni, ertangi kun tibbiyotini yaratadigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Bu yo‘lda bor kuch va salohiyatimizni safarbar etgan holda, tibbiy ta’limni yanada takomillashtirish, ilm-fan va innovatsiyalarni ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘lash, xalqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish hamda inson salomatligiga xizmat qiladigan yangi avlod mutaxassislarini tarbiyalashga munosib hissa qo‘shishda davom etamiz.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor.

AGRAR SOHANING Zamonaviy QIYOFASINI YARATAYOTGAN NAFIS KUCH



Toshkent shahrida Xalqaro qishloq ayollari kuni oldidan “Fermer ayollar: ilm, innovatsiya va agrooziq-ovqat tizimlari transformatsiyasi” mavzuida xalqaro forum bo‘lib o‘tdi.

Forum

Xalqaro paxta bo‘yicha maslahat qo‘mitasi (ICAC), BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur tadbirda qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida xotin-qizlarning roli, ilm-fan va innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda fermer ayollarning hissasi kabi masalalar muhokama qilindi.



Forumda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov bugungi kunda agrar tarmoqda ayollarning o‘rni tobora ortib borayotgani, davlatimiz tomonidan sohada xotin-qizlar uchun munosib mehnat sharoiti yaratish, ularning biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Natijada o‘zbek ayollari ziroatchilik va bog‘dorchilikda o‘z maktablarini yaratmoqda. Bu esa nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosda o‘z e’tirofini topyapti. Yaqinda “Quva anori” agrofirmasi rahbari Masturaxon Sayfutdinova FAOning “Agrooziq-ovqat tizimlari va qishloqlarni rivojlantirishdagi 100 nafar qahramon ayol” ro‘yxatidan o‘rin olgani buning yorqin dalilidir.

Xalqaro ekspertlar qayd etganidek, bugun qishloq xo‘jaligi oldida turgan eng muhim vazifa – oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash. Bu esa sohada zamonaviy bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirgan, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanadigan, bozor talablarini yaxshi anglaydigan yangi avlod tadbirkorlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Ayni shu jarayonda ayollarning salohiyati va imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq hayotining barqarorligi, oilalar farovonligi, yerga mehr hamda mehnat madaniyatining shakllanishida xotin-qizlarning o‘rni beqiyosdir.

Forum doirasida fermer ayollar tomonidan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘rgazmasi, agroinnovatsiyalar hamda startaplar taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Ular bilan yaqindan tanishgan kishi o‘zbek xotin-qizlari agrar sohaning yangi qiyofasini yaratayotgan nafis kuch, ta’bir joiz bo‘lsa, qishloq xo‘jaligining drayveriga aylanganiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Zero, ushbu namoyish qishloq ayollarining mehnati, bilimi, tadbirkorlik salohiyati va g‘oyalari bozor iqtisodiyotida qanday yuqori qiymat yaratayotganining chinakam ko‘zgusiga aylandi.

“Yilning eng yaxshi fermer ayoli – 2026” respublika tanlovi g‘oliblarining taqdirlanishi esa fidokorona mehnat va tashabbusning munosib e’tirofi bo‘ldi.

So‘nggi kunlarda yurtimizda qishloq xo‘jaligining turli yo‘nalishlarini qamrab olgan uchta nufuzli anjuman o‘tkazilgani Toshkent, chin ma’noda, agrar sohadagi xalqaro muloqot markaziga aylanganini tasdiqlaydi. Zero, ushbu yirik forumlar turli mamlakatlar va tashkilotlarning tajribasi, ilmiy salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari hamda amaliy tashabbuslarini bir maydonda birlashtirdi. Bu esa yagona maqsad – inson uchun barqaror va xavfsiz oziq-ovqat tizimini yaratishga munosib hissa qo‘shishi bilan g‘oyatda ahamiyatli.

«Xalq so‘zi».

SPORT XABARLARI

Futbol: ABDUQODIR REYTINGDA BIRINCHI O‘RINDA

O‘zbekiston milliy terma jamoasi va “Manchester Siti” himoyachisi Abduqodir Husanov “Transfermarkt” portali talqiniga ko‘ra, Angliya premyer-ligasida o‘ynayotgan MDH mamlakatlari futbolchilari orasida eng qimmat futbolchi bo‘ldi. Uning ayni paytdagi qiymati 50 million yevroga baholangan.



22 yoshli A. Husanov 2025-yilning yanvar oyida Fransiyaning “Lans” jamoasidan hozirgi klubiga 40 mln. yevro evaziga ko‘chib o‘tgan. O‘zbekistonlik himoyachi yangi jamoasi safida o‘tgan mavsumda Angliya kubogi va Angliya Liga kubogida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Undan keyingi o‘rinlarda Ukraina vakili – “Brentford” futbolchisi Yegor Yarmolyuk 32 mln. yevro, “Liverpul” darvozaboni Giorgi Mamardashvili (Gruziya) 28 mln. yevro, “Everton” vakili, yana bir ukrainalik Vitaliy Mikolenko 25 mln. yevro bilan qayd etilgan.

Taekvondo: PARIJDA GRAN-PRI O‘TKAZILADI

Yaqinda yakunlangan Osiyo o‘yinlarida umumjamoa hisobida ikkinchi o‘rinni egallagan taekvondo terma jamoamiz Parij Gran-prisida qatnashadi.



9 – 11-oktyabr kunlari Fransiya poytaxtida taekvondo WT bo‘yicha navbatdagi musobaqa bo‘lib o‘tadi. “G6” kategoriyasidagi turnirga “Palais des sports Marcel Cerdan” saroyi mezbonlik qiladi. Musobaqada Osiyo o‘yinlari g‘olibi – Jasurbek Jaysunov, kumush medal sohiblari Marat Mavlonov hamda Ozoda Sobirjonova, shuningdek, bronza medali sovrindori Svetlana Saidova ham bahs olib boradi.

Eslatib o‘tamiz, erkaklar 7 ta vazn toifasida tatamiga chiqishsa, ayollarimiz 3 ta vaznda g‘oliblik uchun kurash olib boradi.

Boks: MADRIMOVNING NAVBATDAGI JANGI

O‘zbekiston professional boks federatsiyasi xabariga ko‘ra, Butunjahon boks assotsiatsiyasi (WBA) yo‘nalishi bo‘yicha birinchi o‘rta vazn toifasida sobiq jahon chempioni Isroil Madrimov 30-oktyabr kuni poytaxtimizdagi “Humo Arena” sport saroyida ozarbayjonlik Seymur Isayev bilan jang o‘tkazadi.

Tajribali bokschimiz 2024-yil mart oyida rossiyalik Magomed Qurbonovni 5-raundda texnik nokaut bilan mag‘lub etib, WBA yo‘nalishining jahon chempionligi kamarini qo‘lga kiritgan edi. U faoliyati davomida Terens Krouford va Virgil Ortiz kabi boks yulduzlariga qarshi munosib jang olib borgan.

Uning navbatdagi raqibi S. Isayev UBO yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempionligi unvonini qo‘lga kiritgan.

Qilichbozlik: TOSHKENT – JAHON KUBOGI MEZBONI

Ayni kunlarda Toshkentda qilichbozlikning sablya yo‘nalishi bo‘yicha kadetlar va o‘smirlar o‘rtasidagi jahon kubogi musobaqasi o‘tkazilmoqda.



Xalqaro qilichbozlik federatsiyasi (FIE) taqvimiga kiritilgan mazkur musobaqa “Yoshlik” va “Paxtakor” sport zallarida bo‘lib o‘tayotir. Unda 23 ta davlatdan 360 nafarga yaqin sportchilar ishtirok etyapti.

Yosh qilichbozlar jahon kubogi sovrinlari hamda reyting ochkolari uchun bahs olib bormoqda. Dasturga ko‘ra, kadetlar o‘rtasida yakkalik bahslari, 9-10-oktyabr kunlari o‘smirlar o‘rtasida yakkalik bellashuvlari, 11-oktyabr kuni esa jamoaviy bahslar o‘tkaziladi.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

REKLAMA

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

1. Umumiy geologiya kafedrasi: dotsent (2);
2. Mineral resurslar geologiyasi kafedrasi: dotsent (1);
3. Konchilik ishi va texnologiyalar kafedrasi: dotsent (2), katta o‘qituvchi (1);
4. Ekologiya, yashil transformatsiya va gidrogeologiya kafedrasi: dotsent (1), katta o‘qituvchi (1);
5. Iqtisodiyot va menejment kafedrasi: professor (1), dotsent (2), katta o‘qituvchi (1), o‘qituvchi (1);
6. Sun’iy intellekt va tabiiy fanlar kafedrasi: dotsent (2).

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar universitet rektori nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa, ilmiy daraja va ilmiy unvon diplomlari (attestatlar) nusxalari, ilmiy ishlar ro‘yxati va malaka oshirganlik to‘g‘risida hujjatlar nusxalarini taqdim etishlari kerak.

Hujjatlar e’lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Telefon: 71-209-10-75.

Shu yilning 10-oktyabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ko‘magida Regenerativ tibbiyot bo‘yicha birinchi yirik xalqaro konferensiya o‘tkaziladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.20 Topshirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6